

## FUQAROLIK HUQUQ MUNOSABATLARIDA DELIKT MAJBURIYATLARI

*Jumambetov Rasul Jengusbayevich*

*Yuridika fakulteti, Huquq va biznes mutaxassisligi 2-kurs magistranti, QDU*

**Annotatsiya.** Fuqarolik munosabatlarida mulkiy va ma'naviy zarar yetkazish holatlari uchrab turadi. Ammo, Fuqarolik kodeksida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar tushunchasiga ta'rif berilmagan. Shu bois, mazkur maqolada zarar yetkazishdan kelib chiqadigan delikt majburiyatlar tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** harakatsizlik, delikt majburiyat, zarar yetkazuvchi, javobgarlik, zararni qoplash,

Fuqarolik huquqi milliy huquq tizimining asosiy sohalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlami takomillashtirish, fuqarolar va boshqa subyektlaming moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini toboro to'laroq qondirish maqsadida mulkiy munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasi fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ulami amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bogliq shaxsiy nomulkiy munosabatlarini tartibga soladi. Bundan ko'rinish turibdiki, bunday munosabatlarning asosiy qismini mulkiy munosabatlar tashkil qiladi.

Mulkiy munosabatlar o'z mazmuniga ko'ra mol-mulk bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar, u mohiyatan moddiy-iqtisodiy munosabat hisoblanadi [3. 334-240]. Ya'ni turli moddiy ashyolar, ishlab chiqarish vositalari iste'mol buyumlari umuman kishilaming fuqarolik huquqining boshqa subyektlarini xuddi shunday mahsulotlarni yaratish, egallah, foydalanish, tasarruf etish, fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shu asosda, mulkiy munosabatlarda mulkka zarar yetkazish holatlari uchrab turadi.

Zarar yetkazilganda kelib chiqadigan majburiyatlar tog'risida fikr yuritishdan avval zarar tushunchasining mohiyatiga to'xtalsak. Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol- mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek, bu shaxs o'z huquqlarini buzilmaganida odatdag'i fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi (O'zR FK 14-moddasi).[1].

Berilgan ta'rifga ko'ra zarar tarkibi quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lган xarajatlari;
- 2) shaxsning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar);
- 3) shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lган, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) [6.123-125].

Zarar yetkazish fuqarolik huquqida majburiyat huquqiy munosabatlarining vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida alohida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bobi (2-bobi) mavjud. Fuqarolik kodeksida majburiyatlarning bu bobi «delikt majburiyatlar» deb ham ataladi. [1]. Agar qonun yoki shartnomada zarami kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zaraming to'la qoplanishini talab qilishi mumkin. Agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo'limgan miqdorda to'lanishini talab qilishga haqli.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy shakli bo'lган zararni qoplashni uchta turi bor [5.39-45]. Bular:

Birinchisi zarar (real va boy berilgan foyda)ni qoplash (FKning 14-moddasi) bo'lib, bu umumiy xususiyatga ega.

Ikkinci zarar. Bundan tashqari zararni qoplash maxsus usuli sifatida, agar huquqbazar huquqbazarlik orqali ma'lum bir foyda ko'rgan bo'lsa, mazkur foydani zarar ko'rgan shaxs foydasiga undirish ham qo'l'aniladi.

Uchinchchi zarar. Va nihoyat mualliflik huquqi va turdosh huquqiy munosabatlarda zararlar yetkazilishidan qat'iy nazar, huquqbazarlik xususiyati va huquqbazar aybi darajasidan kelib chiqib, ish muomalasi odatlarni hisobga olgan holda zararni o'rnini qoplash evaziga to'lanishi lozim bo'lган tovonni to'lanishi (Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunning 65- moddasi) ham mavjud.

Fuqarolik kodeksining 985-moddasi bo'yicha javobgarlik asoslari sifatida quyidagilar belgilangan:

- a) zararning mavjudligi,
- b) zarar yetkazuvchi aybining mavjudligi,
- c) zarar yetkazuvchi harakatlarining huquqqa xilofliliği,
- d) zararni qoplash majburiyati zimmasiga yuklatilgan subyektning mavjudligi.[2].

Bu o'rinda shuni taqidlash lozimki, FKning 985-moddasi bo'yicha javobgarlik asoslari o'zining parodaksal qirralariga bam ega. Bu yerda javobgarlikning mutloq asosi sifatida faqat zarar mavjud bolishi kerak. Qolgan elementlar mavjud bo'lmashi mumkin. Masalan, zarar yetkazuvchining aybi bo'Imasligi, zarar yetkazuvchi harakatlarini huquqqa muvofiq bo'lishi, muayyan qonun hujjatlarida belgilangan

hollarda javobgarlik qo'llanmasligi uchun asos bo'la olmaydi. Zarar yetkazuvchi subyekt zimmasiga javobgarlikni yuklashga qonun yo'l qo'ymasligi (14 yoshgacha bo'lgan bolalar tomonidan zarar yetkazilganda) holatlari ham mavjud.

Boshqacha aytganda, qonunda nazarda tutilgan muayyan hollarda javobgarlik zarar yetkazuvchi shaxsga emas, balki boshqa shaxs zimmasiga ham yuklanishi mumkin. Umuman olganda, aksariyat ko'p hollarda majburiyatami buzganlik uchun javobgarlikda ham, zarar yetkazganlik uchun javobgarlikda ham fuqarolik javobgarlik asoslari umumiy yuridik javobgarlik asoslariga mos keladi. FKning 333-moddasi bo'yicha quyidagilar majburiyatiarni buzganlik uchun javobgarlikning zaruriy elementlari sifatida belgilab qo'yilgan.[1].

a) majburiyatni bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi - huquqqa xilof qilmish sifatida;

b) qarzdor aybining mavjudligi;

d) javobgarlik subyekti bolgan qarzdorning mavjudligi. Zarar ushbu tarkibda zaruriy element sifatida emas, balki fakultativ element sifatida namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan asoslarga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkin: fuqarolik munosabatlarda zarar yetkazish holatlari bo'yicha delikt majburiyatlarni amalga oshirish muhimdir. Chunki, zarar yetkazish holatlarda zararni qoplash, yetkazilgan zararga qarshi qonun hujjatlariga muvofiq delikt javobgarlikka tortish ahamiyatlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: "Adolat". 2018. 568 bet.
2. Fuqarolik huquqi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan □Yurispriidensiya□ yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalarga darslik. Toshkent □2017. 252-253.
3. Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmадjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 882 bet
4. Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi (umumiy qism). Darslik. T□ TDYul, 2005.
5. Ro'ziyev R.J, Topildiev V.R. Fuqarolik huquqi. Darslik. □T.: □Cho'lpon□, 2011.
6. Zokirov I B. Fuqarolik huquqi. Darslik. T: TDYul, 2006.